

XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINING TADQIQ QILINISHI (A.L.Kun, P.Ivanov, M.Yo'ldoshevlar tomonidan)

Saidrasul Xusanov

o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston, Farg'ona sh.

Annotatsiya: ushbu maqolada Xiva xonligi arxiv hujjatlarining tadqiq qilinishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, arxiv, ish yuritish tizimi, hujjat, amal va mansablar.

KIRISH:

1873 yil may oyida Rossiya imperiyasi tomonidan Xiva xonligining bosib olinishi paytida xon saroyidagi mavjud bo'lgan moddiy va ma'naviy madaniyatga oid buyum va ashyolar talon taroj etilgani Xorazmlik tarixchi Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida, shuningdek yuqoridagi harbiy yurishda kuzatuvchi sifatida qatnashgan amerikalik jurnalist - "Nyu York Jerald" gazetasining muxbiri Mak Gaxanning "Oks sohilidagi janglar" kitobida haqqoniy tasvirlab o'tilgan.

Ana shu Xiva yurishida sharqshunos A.L.Kun ham qatnashib bevosita xon saroyidagi talon taroj paytida noyob qo'lyozma asarlar, xonlik arxiviga oid hujjatlarni to'plash va ularni dastlab Toshkentdagi o'zi ishlayotgan Turkiston general gubernatorlik mahkamasiga, keyin Sankt Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomli davlat xalq kutubxonasiga yuborish ishlariga boshchilik qiladi.

Shu o'rinda bevosita Xiva xonlari arxiv hujjatlarining to'planib saqlab qolinishi, Sankt Peterburgga yuborilishida tashkilotchilik qilgan Aleksandr Lyudvigovich Kunning hayoti va faoliyatiga to'xtalib o'tsak.

MAVZUNING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Aleksandr Lyudvigovich Kun 1840 yilda hozirgi Ozarbayjonning Shamog'iy shahrida o'qituvchi oilasida tug'ilgandi. Uezd maktabida ishlovchi uning otasi 14 ta tilni bilar, onasi esa arman millatiga mansub bo'lib, Eronning Tabriz shahridan bo'lgan. Yoshligida otasi singari tillarni o'rganish va tarix ilmiga qiziqqan Aleksandrning quvonchi uzoqqa bormaydi-endigina 14 yoshga to'lganida otasi vafot etadi. Shundan so'ng otasining ilmi do'stlari Aleksandrning iqtidorini sezib, 1855 yilda uni hukumat hisobidan o'qish uchun Stavropol guberniyasidagi gimnaziya yuborishadi. Gimnaziyani tugatgan 1860 yilda esa u Sankt Peterburg universitetining sharq fakultetiga qabul qilinadi. A.L.Kun universitetni tamomlagach, mashhur sharqshunos V.V.Grigorevning maslahati va talabi bilan dastlab Orenburg general gubernatorliga, u yerdan esa 1868 yil 24 noyabrda O'rta Osiyoga yuborilgan.

Ma'lumki, bu paytda Qo'qon xonligining ko'plab hududlari, Buxoro amirligi zabt qilingan, Xiva esa navbatdagi nishon edi. Oradan ko'p vaqt o'tmadi -1873 yilda Xorazm ham bosib olindi.



Aleksandr Lyudvigovich ana shu Xiva yurishida Turkiston general gubernatori K.P.Kaufman yonida birga bo'ldi. Bosib olinish jarayonlaridagi voqealarning, urush dahshatlarining guvohi bo'ldi. 29 may kuni Xiva xonining saroyi talon-taroj etilgach esa u yerdan A.L.Kun quyidagi hujjat va buyumlarni qo'lga kiritgandi.

Bu haqda u 1873 yil 18 dekabrda chop qilingan "Turkestanskiye vedomosti" gazetasidagi "Xiva safari vaqtida qilingan ilmiy ish" nomli maqolasida shunday yozadi: "Xiva ekspeditsiyasi vaqtida men quyidagi ilmiy materiallarni to'pladim: xon saroyini musodara qilish vaqtida sharq qo'lyozmalaridan iborat 300 kitob to'plandi, shulardan 129 tasi sarlavhalik 140 tomndan iborat tarixiy qo'lyozmalar, 30 tomndan iborat sharq shoirlarining devonlari, 50 tomndan iborat 40 ta huquqiy va diniy asarlardir. Bundan tashqari 18 tacha "Qur'on" va 50 ta dars kitoblari ham to'plandi. Xon saroyi musodara qilinganida, qo'lyozmalar bilan birgalikda hujjatlar ham to'plandi. Bu hujjatlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: birinchi guruhga xonlikning daromadlari va xarajatlariga doir daftarlar hamda bir qancha vaqf va mulk hujjatlarini, ikkinchi guruhga xatlar va diplomatik yozishmalarni kiritish mumkin. Daftarlar orasida pul soliqlariga dior yozuvlar(solg'ut), zakot daftarlari va Matmurod devonbining xon hujjatlari to'g'risidagi hisobotlari bor. So'ngra shu hujjatlar orasida Buxoroda, G'azalida, Istambulda va boshqa joylarda savdo-sotiq ishlari bilan yashab turgan xivaliklarning xonga yuborgan iltimosnomalari, nizolarini hal qilib berish to'g'risida yozilgan imkoniyatnomalar, biror mansab berish to'g'risidagi iltimosnomalar va shu kabilar bor. Diplomatik hujjatlar orasida Ost-Indiya general-gubernatori Narsbrukning xati, Turkiya sultonining xatlari va farmonlari, rus elchisi podpolkovnik Danilevskiy bilan Xiva xoni o'rtasida tuzilgan ahdnoma hamda Turkiston general-gubernatori tomonidan xonga yuborilgan bir necha maktub bor"(IV AI AN, Fond 33, p 16). Sharqshunos A.L. Kun ana shu ma'naviy boyliklarni Xivadan Toshkentga olib kelib, ayrimlari bilan to'liq, ba'zilarining esa mazmuni bilangina tanishib chiqadi. Tabiyki, olim bisotidagi ko'plab hujjatlarni Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomli Xalq kutubxonasiga taqdim qiladi, ayrimlarini sharqshunos bo'lgani bois tanishib chiqish maqsadida o'zida olib qoladi.

Turkiston general gubernatori K.P. Kaufman esa Xalq Kutubxonasi direktori nomiga 1874 yil yanvarida xat yozib unda shunday fikrlarni bildirgandi: "Hurmatli Ivan Davidovich! O'tgan yilgi Xiva ekspeditsiyasi vaqtida xon saroyi musodara qilinganida mening huzurimda bo'lgan Nadvorniy Sovetnik Kun mening topshirig'imga binoan Sharq qo'lyozmalarini to'plagan edi. Ushbu maktub bilan ilova qilingan ro'yxatga binoan mazkur qo'yozmalar kolleksiyasini yuborib, Imperator Xalq kutubxonasidan bu kolleksiyani rus qo'shinlarining 1873 yildagi Xivada qozongan muvaffaqiyatlari ilm-fanga keltirgan tuhfa tariqasida qabul qilinishini iltijo qilaman. Chin hurmat va astoydil sadoqat bilan kaminalari"(IV AI AN Rossiyskiy federatsiya Fond 33, p 16).

Oradan ikki yilcha vaqt o'tib "Xalq kutubxonasining 1876 yilgi hisoboti" da bu haqdayam to'xtalib o'tiladi: "Kutubxonaning faxriy a'zosi general-ad'yutant K.P.Kaufman O'rta Osiyo xonlarining hujjatlari va yozmalari to'plamini sovg'a qilib yubordi, bu hujjatlar va yozmalar Iskandarko'l, Shahrizabz va Xiva ekspeditsiyalari vaqtida to'plangandir".

Xullas, A.L. Kunning xizmatlari bois Rossiya sharqshunosligi katta ma'naviy boylikka ega bo'ldi. Aleksandr Lyudvigovich Kun esa 1876 yildan 1882 yilgacha Turkiston general gubernatorligining maktablar bosh noziri bo'lib ishlaydi. Ya'ni tashkil qilingan rus-tuzem maktablari faoliyati bilan shug'ullanadi va davr talabiga ko'ra, bunday maktablarni yanada ko'paytirish imkoniyatlarini izlaydi.

Turkiston general gubernatorligi mahkamasida ishlayotgan A.L.Kun 1882 yilda Peterburgga yuborilib, u yerda bir oz ishlaydi. Ma'lumki, bu paytda uning Xiva yurishidan olib kelingan hujjatlarning



ko'pchilik qismi Peterburgdagi Davlat Xalq Kutubxonasida saqlanayotgandi. Xivadan olib kelingan va Toshkentda o'rganish niyatida olib qolgan hujjatlarning ikkinchi qismini A.L.Kun o'zi bilan birga Sankt Peterburgga olib kelib kvartirasida o'qib o'rganish maqsadida saqlab qo'yadi. Ammo u Sankt Peterburgda ozgina vaqt faoliyat ko'rsatgach, Vilno shahridagi maorif okrugi nozirining yordamchisi vazifasi ishga yuboriladi. Biroq sharqshunos sifatida poytaxtda ishlashni ma'qul topgan, bevosita Xorazmdan olib kelingan hujjatlarni tadqiq qilishga endigina imkon topayotgan A.L. Kun o'zining bu ishga tayinlanganidan norozi edi. U bu haqda 1886 yil 4 iyulda sharqshunos V.V.Stasovga yuborgan xatida "meni sharqshunos sifatida dastlab Orenburgga ishlatishga va'da bergan edilar, lekin vakantsiya yo'q degan bahona bilan Vilnoga yubordilar" deya yozadi. Sharqshunos sifatida V.V. Stasov ham Vilnoga xat jo'natib A.L.Kun qo'lida qanday hujjatlar borligiga qiziqadi.

A.L.Kun esa V.V.Stasovga shunday maktub yozib yuboradi: "1876 yilga qadar men Iskandarko'l, Shahrisabz, Xiva va Qo'qon harbiy safarlarida marhum K.P.Kaufman huzurida kolleksioner sifatida qatnashganman. Xalq kutubxonasidagi qo'lyozmalar va Fanlar akademiyasida saqlanayotgan lingvinistikaga doir materiallar mening o'sha harbiy safarlarda qatnashganligimni isbotlovchi materiallardir. Menim qo'limda Xiva xonlarining to'liq tarixi, sharq qo'lyozmalari, qadim zamonlardan tortib to 1873 yilga qadar bo'lgan voqealarni bayon qilgan qo'lyozmalar bor. Lekin bularning hammasi Peterburgda saqlanmoqda va shu sababdan men ular haqida ma'lumot berolmayman".

NATIJALAR

Demakki, Vilnoda ishlayotgan A.L. Kunning o'zi yuqorida ta'kidlab o'tgan, to'plagan materiallari Sankt Peterburgda qolgandi.1888 yil 24 oktyabrda sharqshunos A.L.Kun 48 yoshida Vilno shahrida vafot etadi.Uning vafotidan keyin Sankt Peterburgdagi kvartirasida saqlanayotgan shaxsiy arxivining anchagina qismi Fanlar Akademiyasining Sankt Peterburgdagi Osiyo muzeyi ixtiyoriga,shuningdek Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt Peterburgdagi moddiy madaniyat tarixi institutiga topshiriladi.

Shu tariqa A.L.Kun to'plagan Xiva arxivi uchta ilmiy ma'rifiy tashkilotda:

1. Saltikov Shchedrin nomli xalq kutubxonasida;
2. Osiyo muzeyida;
3. Sankt Peterburgdagi sharqshunoslik institutida hozirda ham saqlanyapti.

Bundan tashqari, sharqshunos A.L.Kunning ayrim shaxsiy hujjatlari, ilmiy merosiga oid ba'zi manbalar esa moddiy madaniyat tarixi institutining № 19 fondida saqlanmoqda. Akademiyaga qarashli "Melanj Aziatik" jurnali 1890 yilda A.L.Kun kolleksiyasidagi qo'lyozmalarning ro'yxatini e'lon qiladi.

A.L.Kun hayoti va faoliyatiga nazar tashlab shuni aytish mumkinki, u sharqshunos sifatida 1873 yilgi yurishda to'plagan ma'naviy boyliklar, xonlik arxiv hujjatlarining to'planib Rossiya imperiyasi poytaxtiga olib ketilishiga boshchilik qildi.Ammo 1876 yil-1882 yillarda Turkiston general gubernatorligida, keyin esa Vilno shahrida maktablar noziri bo'lib ishlagani bois, garchi mutaxassisligi sharqshunos bo'lsada Xiva xonligi arxiv hujjatlarini to'liq tadqiq qilishga ulguradi.

Faqatgina Xivadan olib ketilgan hujjatlarni tavsiflab, ularni ikki guruhga ajrata oldi:

1.Xonlikning daromadlari va xarajatlariga oid daftarlar hamda bir qancha vaqf va mulk hujjatlari;

2.Xiva xonlarining boshqa davlat rahbarlari bilan yozishgan diplomatik yozishmalari va xatlari.

Shu tariqa yetuk sharqshunoslar tomonidan istiqbolli tadqiqotchi sifatida e'tirof etilgan A.L.Kun aynan o'z mutaxassisligi bilan bog'liq bo'lmagan muassalarda ishlagani sabab, yuqoridagi hujjatlarni tadqiq qilishga ulgurmay 48 yoshida vafot etadi.O'ylaymanki, agarda u uzoq umr ko'rib,



yana hayot kechirganida o'zi olib kelgan arxiv hujjatlarinigina emas, ko'plab qo'lyozma asarlarni ham tadqiq qilish bilan shug'ullanardi.

A.L.Kun Xivadan olib kelib o'z uyida saqlagan va vafotidan keyin Sankt Peterburgdagi Osiyo muzeyiga topshirgan hujjatlarning bir qismini sharq qo'lyozmalari bo'yicha yetuk mutaxassis, 1880-1916 yillarda 36 yil ushbu muzeyga rahbarlik qilgan K.G.Zaleman tomonidan ro'yxatga olingandi. Lekin qo'lyozmalarning mazmuni o'qib aniqlanmadi.

Chunki qo'lyozmalar Xiva xonlari arxivi ekanligini, professor Muhammadjon Yo'ldoshevning aytishi bo'yicha, "hech kim bilmadi". Shundan keyin Osiyo muzeyida saqlanayotgan ushbu materiallarning ayrimlari Fanlar Akademiyasining Peterburgdagi Sharqshunoslik institutiga o'tkazildi va mazmuni o'qib aniqlanmagan qo'lyozmalar tariqasida keyingi vaqtlargacha ro'yxatga olinmay, fondga saqlanib kelaverdi. Bu qo'lyozmalar Sankt Peterburgdagi Sharqshunoslik institutida uzoq vaqt saqlandi va shu davr ichida ushbu materiallar bilan ko'pgina atoqli olimlar yuzaki tanishib chiqdi.

Bunga A.L.Kun to'plagan arab yozuvidagi qo'lyozmalarni o'qish juda qiyin bo'lganligi, qolaversa 20 asrning boshidagi davr alg'ov-dolg'ovlari, ijtimoiy siyosiy vaziyatning yomonligi tufayli sharqshunoslarning ko'pchiligi A.L.Kun to'plagan qo'lyozma va hujjatlarga e'tiborsiz qaraganligi sababli, ularning mazmuni aniqlanmay qolaverdi. Shu tarzda bu materiallarning mazmunini aniqlash uzoq vaqtlargacha birinchi darajadagi ilmiy muammo bo'lib keldi. Shu o'rinda A.L.Kun tomonidan 1873 yilda to'plangan Xiva xonligi arxiv hujjatlari to'xonlik tashkil topgan 1511 yildan, yoki poytaxt Vazir, Urganch shaharlaridan keyin Xivaga ko'chirilgandan buyon saqlanayotgan to'liq hajmdagisi edimi degan savol tug'iladi. Rossiya sharqshunoslari orasida yetuk arabshunos, turkshunos sifatida tanilgan, shuningdek o'zbek, tojik, arab va fors tillarini bilgan va mahalliy aholi orasida Iskandar to'ra deya nomlangan Aleksandr Lyudvigovich Kunning o'zi bu haqda shunday yozgandi:

"..Hujjatlar to'plami har qancha qiziqarli bo'lsa ham, lekin bu hujjatlarning fan uchun bo'lgan ahamiyatini e'tiborga olganda: birinchidan, shu hujjatlarning to'liq emasligiga-ko'p hujjatlar yo'q bo'lib ketganligiga va noma'lum kishilar olib ketganligiga va ikkinchidan, bu hujjatlar faqat keyingi vaqtlarga doir qiziqarli materiallardan iborat bo'lganligiga afsuslanmaslik mumkin emas. Bu holning ikkita sababi bo'lishi mumkin: ruslar yaqinlashib kelayotganligi to'g'risida xabar olinishi bilan saroyda umumiy sarosimalik boshlangan, ikkinchidan, musulmon xonliklarida yozma hujjatlarni saqlash odati yo'q edi. Har bir xon o'lganidan keyin saroyda bo'lgan mulkning hammasi merosxo'rlar o'rtasida taqsimlanib olinar edi, davlat arxivlari yoki shunday hujjatlar saqlanadigan boshqa joylar xonliklarda bo'lgan emas" ("Poyezdka po xivinskomu xanstvu v 1873 g" Izvestiya Russk.Geograf. obshestva, t,X, SPB, 1874, 58 bet). Tabiiyki, A.L.Kunning o'zi topgan arxiv to'g'risida bergan ma'lumotlari shubhasiz to'g'ridir. Ya'ni, ana shu ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 1873 yildagi Xiva bosqinida A.L.Kun to'plagan arxiv hujjatlari xonlikning asrlar davomidagi to'liq davlat hujjatlari emasdi.

1868-1882 yillarda 14 yil O'rta Osiyoda xizmat qilgan A.L.Kun yetuk sharqshunos bo'lsada, Turkiston general gubernatorlik mahkamasida ishlagani bois ilmiy faoliyat bilan tadqiqotchi sifatida shug'ullanmagan. Shu bois uning ba'zi fikrlari, jumladan, sharq xonliklarida hujjatlarni saqlash odati yo'q, degan fikrlariga qo'shilish qiyin.

Chunki, 1830-32 yillarda Olloqulixon Toshhovli saroyini qurdirgan paytida xonlik arxivini muhofaza qilishga alohida ahamiyat berib, maxsus bo'lmalar ajratadi. Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida yozilishi bo'yicha, arxiv hujjatlari xazinada saqlanib kelgan. Saroyda arxiv materiallari alohida binoda, maxsus ajratilgan kishilarning nazorati ostida tartib bilan juda puxta saqlanib kelgan bo'lib, har bir daftar raqamlangan.



Ehtimol, qadimgi davrlarda xonliklarda hujjatlarni saqlash an'anasi bo'lmagan. Sharqda arxivlarni saqlash odati bo'lmagan edi, degan fikr o'sha vaqtda ko'p tarqalganligi sababli, 1873 yilgi Xiva yurishi paytida A.L.Kun saroyda yuz bergan tartibsizlik ta'siri ostida qolib, topilgan hujjatlar bilan chuqurroq tanishishga ulgura olmay shu fikrni aytganligi ehtimoldan uzoq emas. Qolaversa, biz tilga olgan A.L.Kunning maqolasi 1874 yilda chop etilgandi. Bundan tashqari, Kaufman armiyasi shtabida xizmat qilgan A.L. Kun hujum qilib borayotgan qismlarning oldingi safida emas edi. Ana shuning uchun ham u saroyga birinchi bo'lib kirmasdan, balki birmuncha keyinroq kirgan, bu paytda esa, xon va uning mulozimlari qochib ketgan, saroyning ichiga yuzlab kishilar kirib chiqqan edi. Ana shu sababli xon va uning a'yonlari tashlab ketgan saroyga tasodifiy kishilar "saroydagi sarosimalikdan" foydalanib, u yerda qimmatbaho narsalar topish maqsadida yoki boshqa maqsadlar bilan kirib-chiqib yurganlar. Shuning uchun ham A.L.Kun qo'liga tushgan arxiv haqiqatan ham betartib holda bo'lgan va bir qismi talonchilik natijasida yo'qolgan bo'lishi mumkin.

Xo'sh, yo'qolishga sabab nimada?

Bu haqda keyinchalik Xiva xonlar arxivini tadqiq qilgan professor Muhammadjon Yo'ldoshev shunday fikr bildiradi: ma'lumki, vaqf yerlar, molu mulk da'vosiga doir qozi yoki quo'begi va boshqa amaldorlarga tegishli hujjatlar ham xon saroyida saqlangan. Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida yozilishi bo'yicha, saroyni zabt etgan Rus generali Golovachyov otryadi saroydan chiqib ketganidan keyin, bir to'lda olomon saroyga bostirib kirgan va Golovachyovdan qolgan narsalarning hammasini olib ketgan. Xo'sh, olomon tomonidan yo'qotilgan narsalar, yoki hujjatlar nima bo'lishi mumkin? Ularni yo'qotishdan kim manfaatdor edi?

Manfaatdorar faqat saroydagi kundalik xarajatlar yozilib borgan va eng keyingi vaqtlarga doir bo'lgan hujjatlar bilan yoki daromadlar to'g'risidagi, yoxud boshqa mansabdor shaxslarning daromadlari to'g'risidagi hujjatlar bilan, yo bo'lmasa soliq to'lovchilarning ro'yxatlari bilan qiziqishlari mumkin edi. Biror narsani olishga yoxud biror hodisaning izini yo'q qilib yuborishga intilgan, o'zlarining fosh bo'lishlaridan qo'rqqan manfaatdor kishilargina (yoki shu kishilarning yollanma odamlari) saroyda ro'y berayotgan voqealardan foydalanib qolmoq uchun mazkur hujjatlarni o'g'irlab ketishlari mumkin edi. Bunday manfaatdor kishilar o'zlarining qadim o'tmishdagi bobolariga doir xarajatlar yoki daromadlar ma'lumotlariga qiziqmas edilar. Ular ko'proq o'zlariga doir ma'lumotlar bilan, o'z hamshaharlari, hamqishloqlariga yoki qarindosh-urulariga doir materiallar bilan qiziqardilar.

Masalan, Xiva arxivida Qushbegi tomonidan aholidan olingan solg'ut (yerdan olinadigan pul solig'i) ro'yxatining yo'qligi tasodifiy bo'lmasa kerak. Shuningdek, A.L.Kun to'plagan A-257 raqamli qizil charm muqovali daftarning ayrim varaqlari yulqib olingan, yozuvsiz toza sahifalarni esa harbiy safar qatnashchilaridan biri kundalik xotiralarini yozib borish uchun ishlatgan.. Arxivdagi hujjatlarning tili hozirgi o'zbek adabiy tiliga kam o'xshash bo'lib, daftarlarda shartli so'zlar bilan yozilgan ma'lumotlar ko'p. Chunki bu ma'lumotlar daftarlarga tadqiqotchilarning o'qishi uchun yozilmasdan, balki tor doira kishilar uchun bitilardi. Bu daftarlarni yozgan mirzolar o'zlari yozgan yozuvlar xonning shaxsiy mahkamasi yoki biror bo'limdagi sirlardan voqif bo'lmaslik uchun, hatto o'z zamondoshlari yoxud sheriklari ham o'qiy olmaydigan yozuvlar bo'lib chiqishiga harakat qilganlar. Ya'ni, xonlik hujjatlari sir saqlanishi uchun atayin o'zlarigina o'qiy oladigan qilib yozishgan. Boshqalar esa ularning yozuviga tushunmagan.

O'zi to'plagan hujjatlarni to'plab dastlab ular bilan tanishgan A.L.Kun bu haqda shunday yozgandi: "Bundan ham chalkashroq yozuvni topish qiyin. Daftarlarda nimalar yozilganligini boshqa devonlardan (kotib-mirzolaridan) iltimos qiliganimda ular yozuvga tushunmay o'qib bera olmadilar".



Aynan, shu sababdan ham hujjatlar A.L. Kun tomonidan Sankt Petrburgga olib ketilib muzey va xalq kutubxonasiga tobshirilgach, ancha vaqtgacha yozuvlarga tushunish qiyinligidan Xiva xonligi arxivi tadqiqotchilari e'tiboridan chetda qolib ketaverdi.

Biroq A.L.Kunning Xorazmdan to'plab olib ketgan kolleksiyasi sharqshunoslik uchun chinakam bebaho ma'naviy boylik edi. Bu ma'naviy boylikdan unumli foydalanish va tadqiq qilish A.L.Kundan keyin ikkinchi bo'lib Pavel Pyotrovich Ivanovga (1893-1942) va uchinchi Muhammadjon Yo'ldoshevga nasib qildi.

Pavel Pyotrovich asli Sibirning Ishim daryosi bo'yidagi rus qishlog'ida 1893 yilda tug'ilgan bo'lib, otasi Pyotr Ivanov harbiy xizmatni Toshkentda o'tab qaytgandi. Biroq Sibirda oilasining moddiy qiyinchiliklari ko'paygach, o'zi xizmat qilgan o'lkaga borib yashashni afzal ko'radi va Toshkentga ko'chib kelib temir yo'l ustaxonasida ishlaydi. Shu tariqa Sibirlik ishchining o'g'li Pavel Toshkentdagi o'qituvchilar seminariyasida tahsil olib, mahalliy xalq tili, urf odat, an'alarini o'rganadi. Semnariyani bitgach Sankt Peterburgdagi sharq tillari institutida o'qiydi va arab, fors, turk tillarini mukammal o'rganadi.

V.V.Batrold, Ya.Yu.Yakubovskiylarning ilmiy maslahatlari va ularning qo'llab quvvatlashi bilan Pavel Pyotrovich Ivanov O'rta Osiyodagi ilmiy ekspeditsiyalarda qatnashdi va to'plagan ma'lumotlari asosida "Sayram", "Issiqko'l havzasidagi moddiy yodgorliklar tarixi", "O'rta Osiyoda tog' -konchilikning rivojlanish tarixi" nomli asarlarini yaratdi. Keyinchalik esa jo'ybor shayxlari, hamda qoraqalpoqlar tarixiga oid asarlarini ham nashr etdirdi.

MUHOKAMA

1936 yildan boshlab esa P.P.Ivanov Saltikov-Shchedrin nomidagi xalq kutubxonasida saqlanayotgan Xiva xonligining arxiv hujjatlari bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. Uch yil davomida Pavel Pyotrovich Ivanov A.L. Kun topib keltirgan Xiva xonligiga oid daftarlarni qisqacha tavsiflab, ulardan parchalar bergan holda 1939 yilda "Arxiv xivinskix xanov XIX v" nomli kitobini nashr etdiradi.

P.P.Ivanov asarida ko'rsatilgan daftarlarning raqamlari tarixchining o'zi qo'ygan raqamlardir. Ushbu raqamlar Saltikov-Shchedrin nomidagi Xalq kutubxonasida qo'lyozmalarning kolleksiyalari yoki arxivlar ro'yxatga olingan vaqtda qo'yilgan hisobot raqamlaridir. Masalan, P.P.Ivanov asarida bayon etib o'tilgan 22-raqamli daftar Xiva xonlari saroyida 13 / 1 raqami bilan, 88 / 2 raqamli daftar xon saroyida 2-raqam bilan, 70 / 3 daftar saroyda 4-raqam bilan yuritilgan. Xiva xonlari arxivi bilan to'liq tanishi imkoniyatiga va tadqiq qilishdek zahmatli, mashaqqatli va sharafligacha P.P.Ivanovning xizmati juda katta bo'lib, u birinchi bo'lib ilm ahllarining e'tiborini arxivga jalb qildi va topilgan materiallarni tizimga soldi. U o'z asarida daftarlarning mazmunini qisqacha bayon qilib berdi va sharqshunoslikga g'oyat katta xizmat ko'rsatdi.

Pavel Pyotrovich Ivanov o'zining Xiva xonligi arxiv hujjatlari bilan qay tariqa shug'ullangani haqida shunday yozgandi: "Leningradda 1936 yili Saltikov-Shchedrin nomli kutubxonada qo'lyozmalar ustida ishlayotib, bo'lim boshlig'i I.A.Beglovga O'rta Osiyo, qisman Sharq qo'lyozmalari haqida so'rab qoldim. O'shanda menga katta bog'lamdagi kip qog'ozlarni ko'rsatdi. Ikkita bo'lmani egallab turgan bu qog'ozlar buklamlarda saqlanayotgan to'liq ishlanmagan sharq tillaridagi yozuvlar bitilgan daftarlardir edi. Men qisqa bir vaqtda ba'zilarini ko'zdan o'tirgach ko'zlarimga ishonmasdim. Negaki bu 120ga yaqin daftar bo'lib, Xiva davlat arxivi edi".

Yozuvlar bitilgan daftarlardan tanishib chiqgach, hujjatlarning davriyligi 1237 hijriy, milodiy 1822 yildan 1872 yilgacha bo'lgan, umumiy hisoblaganda 50 yillik davrni qamrab olgan Xiva xonlari arxivi edi.

Pavel Pyotrovich Ivanovning hisoblashicha, daftarlarning ko'pchiligi Xiva o'zbek tilida bo'lib, 19 asrning 20 yillariga tegishli 8 ta, 1830 yillarga oid 2 ta, 1840 yillarga doir 15, 1850 yillarga oid 28



ta, 1860 yillarga tegishli 12 ta, 1870-72 yillarga oid 15 ta daftar edi va ularni Ivanov sharqshunos tarixchi sifatida tadqiq qilib chiqadi.

Agar ushbu xonlik arxiv hujjatlari yuritilgan daftarlarni bevosita xonlar bilan bog'laydigan bo'lsak, Muhammad Rahimxon 1, Olloqulixon (1825-1842), Rahimqulixon (1842-45), Muhammad Aminxon (1845-1855), Sayid Muhammadxon (1855-64) va Sayid Muhammad Rahimxon 2 hukmdorligining 1864 yildan 1872 yilgacha bo'lgan davriga oid xon farmonlari, yer-mulk egaligi, saroy kirim-chiqimlariga oid hujjatlar ekanligini bilish mumkin. Professor Pavel Pyetrovich Ivanovning ta'kidlashicha, "arxivni ko'rib chiqib, unga xarakteristika berish va turkumlashtirishdan oldin ta'kidlash joizki, bu hujjatlarni yetarlicha tasnif qilish mumkin va qanday sharoitda qilinadi va bunday savollarga birato'la javob berish mushkul. Chunki, bizga Xiva xonligida bunday davlat hujjatlari bilan ish yuritish tizimi noma'lum hamda undagi maxsus terminologiyani o'rganib chiqish lozim.

Yana shuni ta'kidlash zarurki, biz qo'limizdagi O'rta Osiyo xonliklaridagi hujjatlar bilan ishlashda ish yuritish tartiblari moliyaviy hisobot yuritish, rasmiy yozuvlarni qanday shaklda olib borish bilan hozirgacha deyarli hech kim shug'ullanmagan. Xonlik arxivi tadqiqotchilari uchun qo'l yetmas darajadagi murakkab va mavhum holat", degan fikrni bildiradi. Ammo Pavel Pyetrovich Ivanov qunt bilan olib borgan izlanishlari sabab, xonlik arxivi bo'yicha tadqiqotlarni olib borib, "19 asr Xiva xonligi arxiv hujjatlari" nomli asarini yozib nashr etdirdi.

Afsuski, serg'ayrat tarixchi, professor P.P.Ivanovning 1942 yildagi bevaqt vafoti natijasida bu ish to'xtab qoldi va ancha yillargacha hech kim davom etdirmadi. Biroq u A.L.Kun to'plagan, tanishgan, ammo tadqiq qilishga ulgurmagani Xiva xonligi arxiv hujjatlarini o'z imkoniyati darajasidan kelib chiqib o'rgandi va shu mavzu bo'yicha asar yozib qoldirgan holda, unga ilmiy va umrboqiy hayot bag'ishladi.

A.L.Kun to'plagan, P.P.Ivanov davom etdirgan savobli ilmiy ishni chidam bilan tadqiq etish uchinchi bo'lib Muhammadjon Yo'ldoshevga nasib etdi. Muhammadjon Yo'ldoshev garchi Farg'ona viloyatining Beshariq tumanida 1904 yilda tug'ilgan bo'lsada, uning ilmiy faoliyati, qiziqishu intilishlari Xorazm mavzusida edi. Uning yoshligi 1920 yillardagi alg'ov-dalg'ovli davrga to'g'ri kelsada, ilmga intilgani bois O'rta Osiyo Universitetini 1928 yilda tugatdi. Biroq birdaniga ilmiy ish bilan shug'ullanmay, 1929-30 yillarda Toshkent okrug partiya komitetida, VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosida, 1933-35 yillarda Ukraina Kompartiyasi MKda bo'lim mudiri sifatida faoliyat ko'rsatdi. 1935-37 yillarda esa Moskvadagi Qizil Professura institutida tinglovchi bo'ldi. O'qishni tugatib kelgach, 1937-40 yillarda Toshkent shahar va viloyat partiya komiteti kotibi, 1940-42 yillarda respublika maorif xalq komissari bo'lib ishladi. Shu bilan birga "O'zbekiston kommunisti" jurnalining bosh muharriri, Ittifoq Fanlar Akademiyasi O'zbekiston filiali til, adabiyot va tarix institutining direktori bo'lib faoliyat ko'rsatdi. Urush avjiga chiqqan 1942-45 yillarda esa Orenburgga yuborilib, Buguruslan o'qituvchilar instituti va 1945-48 yillarda Mordva pedagogika institutlarida direktorlik qildi. Shundan so'ng Moskvaga borib 1948-51 yillarda fanlar akademiyasining sharqshunoslik institutida katta ilmiy xodim, 1951-56 yillarda Leningrad Davlat Universitetida dotsent, 1956-61 yillarda esa O'ZKP(b) MK huzuridagi partiya tarixi instituti direktori sifatida mehnat qildi. Bunday nazar solsangiz Muhammadjon Yo'ldoshevning umr yo'li turli darajadagi mansablarda o'tgandek. Ammo u ilm bilan shug'ullanishni kanda qilmadi. Arab yozuvini va tilini yaxshi bilganidan eski qo'lyozmalarni to'plash, ularni tadqiq qilishga vaqt topaoldi. Bu borada dastlab nomzodlik, 1953 yilda bo'lsa "Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Faqat 1961 yildan keyingina O'ZFA sharqshunoslik institutida bo'lim mudiri, professor sifatida yoshlarga ustozlik qilish bilan birga ilmiy tadqiqotlarini davom



etdirdi. Shular asosida esa “Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi”, “K istorii torgovix i posol’skix svyazey Sredney Azii s Rossiye v 16-17 vv”, “K istorii krest’yan Xivi 19 v”, “Xiva xonligi arxiv hujjatlari” nomli monografiyalar yaratdi.

Ma’lumki, akademik V.V. Bartold aytganidek, “musulmon olamida tarix hech bir joyda bevosita arxivdan olingan hujjatlar asosida yozilgan emas”. Bu haqda akademik I. Yu. Krachkovskiy ham ta’kidlab, “sharq tarixchilari oldidagi jiddiy qiyinchilik bular tekshirgan mamlakatlarning ichki hayotini tasvirlovchi hujjatlardan foydalanish imkoniyatining yo’qligi edi”.

1951-56 yillarda Leningrad shahrida yashab, universitetda dotsent sifatida faoliyat ko’rsatgan Muhammadjon Yo’ldoshev A.L. Kun to’plagan va uni tadqiq qila boshlagan P.P. Ivanovning ishini uchinchi bo’lib davom etdirgan holda, olib borgan tadqiqotlari bilan Sharq hayotidagi butun bir tarixiy davrni yangicha yoritishga muvaffaq bo’ldi.

Jami o’n bir ming varaqdan iborat A.L. Kun to’plagan va Saltikov Shchedrin nomidagi xalq kutubxonasida hamda Osiyo muzeyida saqlanayotgan xonlik arxiv hujjatlarini tavsiflash va tekshirish, tarjima qilish tabiiyki oson bo’lmadi. Bunga M. Yo’ldoshev yillar davomidagi sabr matonati evaziga erishdi.

Natijada arxiv materiallari vositasi bilan, XIX asrda Xivada yirik feodal yer egaligining qanday tarkib topganligi va yerdan kimlar foydalanganligi, aniqrog’i kimlarga tegishli bo’lganini aniqlashga muvaffaq bo’ldi. Uning tadqiqicha, butun xonlikdagi yerlarning 10/9 foizi katta yer egalarning qo’lida bo’lgan.

Muhammadjon Yo’ldoshev izlanishlari asosida Xiva xonligida katta yer egaligi ko’chmanchi oqsuyaklarga qarashli yerlarni musodara qilish natijasida vujudga keldi degan noto’g’ri nuqtai nazarni rad etib, o’troq feodallar zo’rlilik va bosqinchilik bilan yerlarni bevosita ishlab chiqaruvchilardan tortib olganliklarini isbotlaydi.

Professor M. Yo’ldoshev o’z asarlarida haqiqiy hujjatlarga tayanib, tarix fanida birinchi marta XIX asrda xonlikdagi agrar tuzumni va feodal jamiyatning tuzilishini mukammal bayon qilib beradi, keng xalq ommasining hayotini, Xorazm qishloqlaridagi murakkab ijtimoiy tabaqalanish jarayonini, dehqonlar tabaqasini, turli tabaqalarning qo’lida qancha yer bo’lganligini ko’rsatib beradi. Xullas, Muhammadjon Yo’ldoshev A.L. Kun to’plagan, P.P. Ivanov davom etdirgan ilmiy tadqiqotni davom etdirdi. Afsuski, uning 1985 yildagi vafotidan so’ng, Xiva xonligining arxiv hujjatlarini o’rganish bilan keyingi davrda hech bir tadqiqotchi shug’ullanmadi.

XULOSA

Hozirda 1873 yilda Xivadan olib ketilgan xonlik arxiv hujjatlari, qo’lyozma asarlar, shuningdek A.L. Kunning shaxsiy fondi, ular ichidagi ayrim Xorazm tarixiga oid manbalar Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomidagi xalq kutubxonasi va Osiyo muzeyidagi, sharqshunoslik institutidagi, moddiy madaniyat tarixi institutidagi qo’lyozmalar o’z tadqiqotchilarini intizorlik bilan kutib yotibdi...

Adabiyotlar:

1. Saidrasul, X. (2023). MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR BIRLIGI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(23), 101-108.
2. Xusanov, S. (2023). KATTA FARG ‘ONA KANALI QURILISHI TARIXIGA NAZAR (NOYOB ARXIV HUJJATLARI ASOSIDA). *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 16, 425-429.
3. Xusanovich, X. S. (2022). XIVA XONLIGIDA XIX-XX ASRNING BIRINCHI CHORAGIGA QADAR DAVRIDA ARXIV ISHI VA UNING O’RGANILISHI. *Research Focus*, 1(3), 94-98.



4. Khusanov, S. (2021). Qozikhona and religious rule in khiva khanate in the beginning of XIX-XX centuries. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(12), 758-763.
5. Khusanov, S. (2022). Khiva madrasahs. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(6), 107-111.
6. Khusanov, S. (2022). Historiography of the problem of record keeping and archival affairs of the Khiva khanate in the XIX-early XX centuries. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(6), 93-98.
7. Xusanovich, X. S. (2023). XIVA XONLIGIDA QO‘NG‘IROTTLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA ARXIV ISHI VA UNING O‘RGANILISHI (XIX-XX ASRNING BIRINCHI CHORAGIGA QADAR). *Miasto Przyszłości*, 42, 346-350.
8. Sharipova, K. (2023). YETIM VA OTA-ONA QAROMOG‘ISIZ QOLGAN BOLALARNI IJTIMOIIY HIMOYALASHDA XALQARO RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI. *Academic research in educational sciences*, 4(Periodical Collection 7), 177-183.
9. Шарипова, К. (2023). СЕМЬЯ, МАХАЛЛЯ, ШКОЛЬНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022*, 2(18), 53-57.
10. Sharipova, K. (2023). MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK O‘ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(18).
извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/1246>
11. Абдурахмонова, М. М., & Тургунбоев, А. Ф. (2022). ЖАМОАТЧИЛИК ФИКРИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ ОМИЛЛАРИ, ШАКЛЛАРИ ВА ФАОЛИЯТ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Research Focus*, 1(1), 324-326.
12. Абдурахмонова, М. М., & Тургунбоев, А. Ф. (2022). БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ-ЖАМИЯТ ХАЁТИНИНГ БОШ БЎЎГИНИ СИФАТИДА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 704-709.
13. Абдурахманова, М. М., & Тургунбоев, А. Ф. (2022). Формирование Рынка Труда Как Фактор Развития Народного Хозяйства. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(8), 1-6.
14. Абдурахманова, М., Хонкелдиева, К., & Тургунбоев, А. (2022). ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ КАК УСЛОВИЕ ЭФФЕКТИВНОЙ РЕАЛИЗАЦИИ ЦЕЛЕВЫХ КОМПЛЕКСНЫХ ПРОГРАММ В РЕГИОНЕ. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 878-882.
15. Abduraxmonova, M. M., & Turgunboyev, A. F. (2023). AHOLIGA SIFATLI IJTIMOIIY XIZMATLAR KO‘RSATISHDA JAMOATCHILIK FIKRIGA TAYANISH SAMARADORLIGI. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(22), 192-200.
16. Мамажонова, Д. (2023). WAYS TO COMBAT CRIME AND IMPROVE THE CRIME PREVENTION SYSTEM. *IMRAS*, 6(7), 227-236.
17. Мамажонова, Д. (2022). КОНСТИТУЦИОННЫЙ ИСЛОХОТЛАР-ХАЛҚ МАНФААТИНИНГ АСОСИЙ МЕЗОНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 688-693.
18. Борогов, А. (2023). ХУСУСИЙ МУЛК ДАХЛСИЗЛИГИГА ДОИР АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(Maxsus son), 154-155.



19. Боротов, А. (2022). ХУСУСИЙ МУЛК ҲУҚУҚИНИ ИШОНЧЛИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ТАКОМИЛ ЙЎЛИДА. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 96-102.
20. Khomidovich, B. A. (2023). DEVELOPMENT OF PRIVATE PROPERTY AND BUSINESS. *World Bulletin of Management and Law*, 18, 105-107.
21. Ахмедбекова, М. (2023). ОИЛА ТАРБИЯСИ ВА УНИНГ ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Research Focus*, 2(3), 164-168.
22. Ahmedbekova, M. (2022). THE IMPORTANCE AND SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPED ARTISTIC AND AESTHETIC CREATIVITY OF THE YOUNG GENERATION AND FINE ARTS IN SOCIETY. *Science and Innovation*, 1(8), 112-119.
23. Qahhorovna, A. M. (2023). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ТАСВИРИЙ FAOLIYAT MASHGULOTLARINI TASHKIL ETISH TECHNOLOGIYALARI. *IQRO*, 2(2), 553-561.
24. Maxpuzakhon, A. (2022). Methods of Using Modern Pedagogical Technologies in Organizing Fine Arts Lessons. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 268-271.
25. Adkhamjonovich, U. U. B. (2023). A Look at the Veterinary History of Turkestan in the Late 19th-Early 20th Centuries. *International Journal of Formal Education*, 2(5), 81-84.
26. Adhamjonovich, U. (2022, November). INFORMATION ON ANIMAL HUSBANDRY IN TURKESTAN (LATE XIX–EARLY XX CENTURIES). In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 1, No. 2, pp. 89-95).
27. Ўрмонов, У. (2022). Вопросы борьбы с болезнями скота в Туркестане. (Конец XIX–начало XX). *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, 1(1), 383-389.
28. Ўрмонов, У. А. (2023). ТУРКИСТОН МАТБУОТИДА МАРҒИЛОН ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАДАНИЙ ҲАЁТИНИНГ БАЪЗИ МАСАЛАЛАРИ ТАЛҚИНИ (XIX аср охири–XX аср бошлари). *Miasto Przyszłości*, 42, 340-345.
29. Adkhamjonovich, U. U. B. (2022, November). THE ROLE OF LIVESTOCK AND PRODUCTS IN THE DOMESTIC AND FOREIGN TRADE AT THE END OF THE 19TH CENTURY-THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY (On the example of Fergana Valley). In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 1, No. 3, pp. 30-35).
30. Ўрмонов, У. (2022). ҚАДИМГИ ФАРҒОНАНИНГ ХИТОЙ МАНБАЛАРИДА ЁРИТИЛИШИ. *Gospodarka i Innowacje*, 27, 96-101.
31. Бекмирзаев, Р. Б., & Илебаев, А. К. (2023). БАБУР-ШАХ И СУЛАЙМАН-ТОО. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 18, 158-162.
32. Ахматова, А., Илебаев, А., & Бекмирзаев, Р. (2023). ЗЕБ УН-НИСА ОЧАРОВАНИЕ И ТРАГЕДИЯ. *Interpretation and researches*, 1(1).
33. Ахматова, А., Илебаев, А., & Бекмирзаев, Р. (2023). «КУДАТГУ БИЛИГ» ОБ ИГРАХ И ЗАБАВАХ В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ. *Interpretation and researches*, 1(1).
34. Bekmirzayev, R. B. (2023). FARG ‘ONA VODIYSIDAGI ZAMONAVIY MILLATLARARO MUNOSABATLARGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOY-IQTISODIY MUAMMOLAR. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(4), 64-67.
35. Begalievich, B. R., & Nimatovna, A. A. (2023). ABOUT THE CHARMING CREATION OF ZEBU UN-NISSA BEGIM. *Academia Science Repository*, 4(04), 879-887.
36. Zoirjon, A. (2023). Important aspects of ensuring the effectiveness of training in primary education. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 12(6), 67-73.



37. Aripov, Z. (2023). MODERN REQUIREMENTS FOR THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF A TEACHER. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(7), 175-178.
38. Zoirjon, A., & Ominaxon, O. (2022). NUTQ BUZILISHI TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATALRI. *Research Focus*, 1(4), 216-221.
39. Toirjonovich, A. Z. (2023). Creative Self-Development of the Personality of the Future Teacher. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 4(2), 49-56.
40. Арипов, З. Т. (2020). Процесс Формирования Коммуникативно-Речевой Готовности Старших Дошкольников К Обучению. In *Проблемы Филологического Образования* (pp. 108-112).
41. Gulnoza, K. (2023). SOCIAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF COOPERATION “FAMILY–NEIGHBORHOOD–EDUCATIONAL INSTITUTION”. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(6), 99-104.
42. Karimova, G. Y. (2023). THE IMPORTANCE OF THE FORMATION OF CIVIC ENGAGEMENT AND SOCIAL ACTIVITY AMONG YOUNG PEOPLE. *Gospodarka i Innowacje*, 41, 563-570.
43. Боротов, А., & Каримова, Г. (2023). Конституция и законодательный акт. *Вестник Омского государственного университета. Право*, (1 (2)), 1-5.
44. Бозаров, Д. М., & Каримова, Г. Й. (2021). МУРАККАБ ИЖТИМОЙ ТИЗИМЛАРДА ЎЗ-ЎЗИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ МОДЕЛИНИНГ ЎРНИ. *Oriental Journal of Social Sciences*, 1(1), 1-9.
45. Боротов, А. (2023). СОБИҚ ИТТИФОҚ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА ҲУСУСИЙ МУЛК: РИВОЖЛАНИШ ИЕРАРХИЯСИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР (“ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ” БИЛАН ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛ АСОСИДА). *Interpretation and researches*, 1(1).
46. Рафиқова, Д. К., & Каримова, Г. Й. (2020). Ёшларни ижтимоий фаоллигини оширишда кадриятларнинг аҳамияти. *Перекрёсток Культуры*, 2(1).
47. Karimov, U. U. (2023). THE IMPORTANCE OF FAMILY EDUCATION AND EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY. *Gospodarka i Innowacje*, 41, 580-588.

